



UDK: 81'7

Muhammadjon ERGASHEV,
QDPI dotsenti, PhD
Email: ergashev.m@mail.ru

ADChTI professori, f.f.d M.Abduvaliev taqrizi ostida

TERMIN BELGISINING SEMANTIK TUZILISHI

Annotasiya

Har qanday ilmiy tushuncha uni nomlovchi terminning semantik tuzilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir terminning semantikasi asosan u ifodalaydigan bilimlarning ushbu soha tushunchalari tizimidagi o'rni bilan asoslangan va shu boisdan har bir alohida terminning ma'nosi huddi o'zi mansub bo'lgan shu tizimning boshqa qarindosh terminlari ma'nolari tomonidan muvofiqlashtirilgan kordinasiyalashtirilgan bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ilmiy tushuncha, termin, semantik tuzilish, tizim, qarindosh terminlar, kordinasiyalashtirilgan, klassifikasion tizimlilik.

SEMANTIC STRUCTURE OF THE TERM

Annotation

The semantic meaning of the term that defines highly dependent on the context in any scientific materials. The semantics of each term are primarily based on its place in the hierarchy of knowledge represented by that domain, and are thus coordinated so that the meaning of each individual term is consistent with the meaning of other related terms in the hierarchy to which it belongs.

Key words: Scientific meaning, term, semantic meaning, system, related terms, coordinated, classification system.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ТЕРМИНА

Аннотация

Семантическое значение термина, которое определяется в значительной степени в зависимости от контекста в любых научных материалах. Семантика каждого термина в первую очередь основана на его месте в иерархии знаний, представленных этой областью, и таким образом координируется таким образом, чтобы значение каждого отдельного термина соответствовало значению других связанных терминов в иерархии, к которой он принадлежит.

Ключевые слова: научный смысл, термин, семантическое значение, система, связанные термины, скоординированные, система классификации.

Kirish. Termin – belgi shunchaki tushunchani nomlamaydi. Termin – bu maxsus tushunchani nomlash uchun ishlatiladigan belgi va u o'z navbatida voqelikning obyekt va predmeti hisoblanadi. Shu boisdan so'z-terminning ma'nosi hajmi bo'yicha maxsus tushunchaga mos keladi, terminning ma'nosini aniqlash esa – maxsus tushunchani uning belgilari orqali ta'riflash demakdir. «Tushuncha» va «ta'rif» mantiqiy kategoriyalardir, demak, maxsus tushunchani ta'riflash mantiq talablariga binoan amalga oshiriladi.

Termin-belgining tushuncha kompetensiyasi tushunchaga mantiqiy kategoriya sifatida tayanib, termin va tushuncha o'rtasida tizimli munosabatlarni modellashtirish imkonini beradi.

Har bir terminning semantikasi asosan u ifodalaydigan bilimlarning ushbu soha tushunchalari tizimidagi o'rni bilan asoslangan va shu boisdan har bir alohida terminning ma'nosi huddi o'zi mansub bo'lgan shu tizimning boshqa qarindosh terminlari ma'nolari tomonidan muvofiqlashtirilgan kordinasiyalashtirilgan bo'ladi. Bundan kelib chikadiki, termin semantikasiga avvalo mantiqiy jihatdan klassifikasion tizimlilik ta'sir ko'rsatadi, ya'ni uning kategoriyalardan biriga mansubligi talab etiladi. Bunday tizimlilikka ega bo'lgan termin o'zi kabi tasniflovchi qatorlar ichidagi sintagmatik va paradigmatic munosabatlarning o'ziga xos xarakteri va birinchi navbatda - iyerarxik tuzilmasi bilan ham belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.A.Nikiforov terminografiyani o'ziga xos funktsiya asosida ajratib ko'rsatiladigan maxsus leksik guruhni tizimlash, konseptualash va kategoriyalash deb ta'riflagan. Bu funktsiya

tizim tomonidan taqozo etiladi, «terminografiya o'z navbatida umumiy til lug'at boyligi tizimining tartibga solingan bir qismi hisoblanadi va ilmiy tafakkurni ifodalash vositalaridan biri, bo'lib xizmat qiladi. Bu tizim terminografik lug'atdir. Garchi tilda terminlar tomonidan ifoda qilinadigan termin elementlarning bu turida asosiy xususiyat sifatida ajratib ko'rsatiladigan nominativlik funktsiyasi saqlanib qolsada terminologiyadan tashqarida so'z o'zining termin degan tavsifini yo'qotadi, chunki “nominativ funktsiya – bu so'zlar uchun umumiy funktsiya”, shunchaki odatiy bog'langan nutqda kommunikativlik funktsiyasining soyasida qoladi[1].

Terminning semantik tuzilishi ikki omil bilan belgilanadi: terminologik mohiyat va lisoniy substrakti bilan. Lisoniy substraktdan termin semantik tuzilishini oladiki, u mazmun (o'zining ma'nosi) va ichki shaklga (ma'no, motivlanganlik, ya'ni leksik birlikning mazmun-moxiyati qanday usul bilan namoyon bo'lganligi) ega bo'ladi.

Har qanday terminologiyaning shakllanishi kommunikativ ehtiyojlarga qarab, kerakli atash vositalarini yaratadigan professional yo'naltirilgan til egalari faoliyati asosida sodir bo'ladi.

Avlodlarning kasbiy tajribasi terminologiyada qayd etiladi va tizimlashtiriladi va bu sohada ilmiy aloqaning maxsus sohalarida aniq kommunikativ faoliyatni samarali amalga oshirish uchun tildan foydalanishda shaxsning maqsadli roli eng aniq namoyon bo'ladi[2].

Shunday qilib, biz terminologik lug'at ingliz tili leksik tizimining ajralmas qismi bo'lib, tilga xos bo'lgan bir xil o'zgarishlar, tendensiyalar va qonuniyatlarga duch keladi

degan xulosaga kelamiz, lekin u bilan bog'liq ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega.

XX asr boshlarida R.O. Yakobson tilning asosiy 2 ta vazifasini: til kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi sifatida kommunikativ (lotin tilidan *communico* = umumiy qilaman, bog'layman, muloqot qilaman) va til va tafakkurni bog'laydigan kognitiv (lotinchadan *cogito* = o'ylayman, fikrlayman) ajratadi. Bugungi zamonaviy ilmiy doiralarda til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ijtimoiy xayot sharoiti insonning yaratuvchanlik va bilishga yo'naltirilgan faoliyati shaxslarning doimiy ravishda o'zaro muloqotga kirishuvini taqozo etadi[3].

Insoniy munosabatlarning asosini til belgilari orqali aloqaga, muloqotga kirishuv tashkil qiladi. Bunday muloqotning asosiy vazifasi shaxslararo murakkab va ularning xar tomonlama ijtimoiy munosabatlariga mos keladigan, mazmunli va tezkor aloqa o'rnatishidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Insoniyat taraqqiyoti tarixi ham muloqot jarayonida ro'y beradi va yaratiladi. Bu o'rinda ijtimoiy taraqqiyotning belgilovchi omili sifatida o'zaro munosabatlarning roli tobora oshib borishi kuzatiladi. Ana shu jihatdan tilning eng muhim aloqa vositasi sifatidagi kommunikativ qudrati, rivojlanish darajasi ko'zga yaqqol tashlanadi. Boshqa tomondan olib qaralganda, insoniyat taraqqiyotida til voqelikni bilishning, ijtimoiy borliqni idrok etishning ham muhim vositasi bo'lib hizmat qilgan. Natijada insonning kommunikativ va bilishga oid faoliyatida yagona bir vosita - tildan foydalanish umum bashariy taraqqiyotning muvaffaqiyatini ta'minladi. Muloqotning mazmunli, ochiq va tushunarli bo'lishi lisoniy materialning hajm va ma'no jihatdan chegaralanmaganligiga bog'liqdir.

Bu o'rinda til zahirasida ijtimoiy - tarixiy axborotni saqlashning ikki darajasini yoki usulini farqlash mumkin: 1) tilning o'zida, ya'ni tilning semantik tizimida, lug'atlarda va grammatik kategoriyalarda; 2) tilda yaratilgan, muloqot materialida, ya'ni og'zaki va yozma matnlarda; Odatda, tilning bajaradigan ko'plab funksiyalari qatorida ba'zilar eng muhim ekanligi ko'rsatiladi: 1) til odamlar orasida eng muhim aloqa vositasidir; 2) u insoniyatning ijtimoiy tarixiy tajribasini saqlash uchun hizmat qiladi; 3) til tafakkurning asosiy elementi vazifasini bajaradi. Bular har qanday tilning eng muhim, asosiy funksiyalari hisoblanadi. Ammo tilning funksional imkoniyatlari bu bilan cheklanmaydi. Inson kommunikativ faoliyatining turli-tumanligi aloqa vositasi sifatida hizmat qiladigan til tizimining ichki murakkabligi va bajaradigan funksiyasining xilma- hilligi bilan ham bog'liqdir.

R.O. Yakobson, zamonamizning eng bilimdon tilshunos olimlaridan biri, kommunikativ akt jarayonini o'rganar ekan, uning barcha funksiyalarini, hatto nkkinchn darajali omillarini ham chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlagan edi. Shu nuqtai nazardan R.Yakobson tomonidan ilgari surilgan tilning emotiv, fatik, metalisoniy va estetik funksiyalarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.[3] Muloqot nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki gapirayotgan shaxsning ruhiy xolatini, hissiyotini, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o'zining emotiv (emotsional-ekspressiv) funksiyasini bajarishga kirishadi. Ayrim holatlarda muloqot maqsadsiz amalga oshiriladi: bunday hollarda suhbatdoshlar uchun ular o'zaro almashayotgan axborot muhim emas, ular o'z hissiyotlarini ifodalashga, bu bilan bir-birlariga ta'sir qilishga urinmaydilar. Bu paytda ular uchun faqatgina aloqaga kirishuv muhim, bu orqali keyingi mazmunliroq muloqotga tayyorlanadilar. Bunday hollarda til o'zining fatik funksiyasini (munosabat o'rnatish funksiyasi, aloqaga kirishuv) bajaradi. Tilning fatik funksiyasi salomlashuvlarda, tabriklarda, odatiy ob-havo haqidagi va shunga o'xshash mazmundagi suhbatlarda namoyon bo'ladi. Tilning behad semantik imkoniyatlari

suhbatdoshlarga uning metalisoniy funksiyasidan foydalanish imkonini beradi.

Bu so'zlovchining axborotni yanada tushunarliroq, yanada ifodalibroq etkazish uchun tilning turli vositalaridan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Bunday vaziyatlarda tilning o'zi nutq ob'ekti vazifasini bajara boshlaydi. Tilning metalisoniy funksiyasi atamasi, boshqacha aytganda, «nutq materialini izohlab gapirish» degan ma'noni anglatadi.

Tahlil va natijalar. Til va tafakkur munosabati muammosining uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan muhokamasi turli metodologik xulosa va tavsiyalarni yuzaga keltirdi. Tashqi dunyoning ongda in'ikosi paydo bo'lishida til asosiy rol o'ynashiga alohida urg'u bergan olimlar ta'kidicha, lisoniy struktura (qurilma) insonning voqelikni idrok etish qobiliyati va tajribasining shakllanishini ta'minlab, ijtimoiy ongga ta'sir o'tkazadi hamda shu yo'sinda insonning dunyoqarashi, voqelikni anglash qobiliyatini shakllantiradi. Tafakkur qanchalik darajada lison bilan bog'liq hodisa bo'lmasin, uning faqatgina til vositasida amalga oshishi yoki, boshqacha aytganda, tilsiz tafakkur bo'lmasligi haqidagi xulosa unchalik haqiqatga yaqin emas. Til va tafakkur aynan bir narsa bo'lmasa kerak. Tafakkur predmet, hodisalarning aloqa va munosabatlari haqida ma'lumot beruvchi voqelikning umumlashgan holdagi in'ikosidir. Voqelikning miyada aks etishi faqatgina nutqiy tafakkur harakati natijasida yuzaga kelmasligini isbotlash maqsadida B.A.Serebrennikov tafakkurning lisoniy va nolisoniy turlarini farqlashni taklif etganligini eslaymiz[4]. Bular quyidagilar: a) aniq tafakkur - anik, konkret muhitda yuzaga keladigan voqelikning umumlashtirilgan obrazi (aksi); b) ramziy tafakkur - xotirada mavjud bo'lgan bugun bir voqelik yoki predmet-xodisalarni alohida bir muhit sharoitga bog'liq bo'lgan holda qayta eslash; v) amaliy tafakkur - bevosita maqsadli xarakterlar bajarilishi bilan bog'liq fikr; g) lingvokreativ yoki lisonni shakllantiruvchi tafakkur, ya'ni bu turdagi tafakkur xarakterlari bevosita til tizimi zahiralari bilan bog'liq d) nolisoniy tushuncha tafakkuri - (bu turdagi tafakkurning alohida ajratilishi, voqelik haqidagi tushunchaning paydo bo'lishi nutqiy harakatdan oldingi bosqichga oidligi bilan bog'liqdir). Tafakkur qaysi holatda va qanday ko'rinishda harakatga kelmasin, yagona bir vazifani bajaradi - u voqelik haqidagi axborotni qabul qilish, to'plash, qayta ishlash va tartibga solish usulidir. Bu usul vositasida hosil bo'ladigan g'oya yoki fikr voqelikning ongda aks etish shaklidir. Tafakkurning harakatlanishi va fikrning shakllanishi voqelikning bevosita ongda aks etishini ta'minlovchi jarayon - bilish faoliyati bilan bog'liq. Tilning bilish faoliyatidagi o'rni alohida, u voqelikni idrok etish va bilish vositasi - qurolidir. S.D. Kasnelison «Til - nafaqat muloqot quroli, balki fikr va g'oyani shakllantiruvchi hamda uni ifodalovchi qurolidir» deb yozgan edi[5]. Tilning tafakkur faoliyatidagi rolini bilish uchun ong va tilning munosabatiga oddiy bir hol (hodisa) sifatida qaramaslik lozim. Bu munosabat ikki mustaqil hodisaning o'zaro «muloqot»idir. Qay darajaligidan qat'iy nazar, til va tafakkur munosabati masalasining falsafa, tilshunoslik va psixologiya fanlari doirasida ancha batafsil muhokama qilinishi kognitiv tilshunoslik tarakqiyoti uchun mustahkam zamin yaratdi. Kognitiv tilshunoslik majmuaviy tadqiqot yo'nalishi (sohasi) bo'lib, u tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun'iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fan sohalariga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi. Ma'lumki, nutqiy birliklarning hosil bo'lishi va ularning tushunilishi aqliy faoliyat natijasidir. Bu faoliyatning bajarilishi bevosita lisoniy bilimga ega bo'lish sharti bilan bog'liq. Negaki, lisoniy bilimsiz voqelikni bilish, kechayotgan voqea - hodisalar haqidagi axborotni aks ettiruvchi mantiqiy strukturalarni lisoniy ifodalashning imkoni yo'q. Shunday ekan, kognitiv tilshunoslikka lisoniy qobiliyatning tarkib topishini tushuntiruvchi fan sifatida qaralishi bejiz emas.

V.Z.Demiyankov bu sohaning asosiy vazifasini inson tomonidan tilni o'zlashtirish mexanizmlari hamda bu mexanizmlarning tarkibini «sistemaviy tasvirlash va tushuntirishdan iborat» deb ta'riflashi bundan guvovlik beradi[6]. Haqiqatan, kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa ko'chadi.

Xulosa va takliflar. Bir obyekt boshqasidan ajratish uchun uning farqlovchi belgilarini topish lozim. Keyingi bosqichda esa, farqlovchi belgilarining chog'ishtirilishi asosida ob'ektning hissiy ramzi yuzaga keladi. Navbatdagi bosqichda paydo bo'lgan ramzning xotirada saqlanayotgan boshqa ramzlar bilan o'xshash tomonlari izlanadi. Nihoyat, voqelikni bilishning muhim bosqichi - umumlashtirish harakati amalga

oshadi. Sanab o'tilgan mental harakatlar kognitiv strukturalarni (tafakkur faoliyati qismlarini) tashkil qilib, ob'ekt haqidagi tushunchaning shakllanishini ta'minlaydi. Tushuncha - mental tuzilma, u aqliy faoliyatning o'ziga xos shakli (turi)dir. Tushuncha «qandaydir bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va ushbu sinfni unga kiruvchi predmetlarning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasiga nisbatan ajratuvchi mantiqiy faoliyat natijasida hosil bo'ladi»[7]. So'zsiz, bu ikkala «tushuncha» va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanilayotgan «konsept» ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bularning ikkalasining ham boshlang'ich nuqtasi voqelikdagi predmet - hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq. Paydo bo'lgan hissiy obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual ko'rinishda bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Nikiforov V.A. Kratkiy slovari po logike. M., 1991.
2. Lyagushevich S. I. Metaforicheskiy perenos v obrazovaniy terminov Tekst. / S. I. Lyagushevich. 2005. - S. 5.
3. Yakobson R.O. Rechevaya kommunikatsiya. - Yakobson R. O. Izbrannie raboti. M., 1985.
4. Serebrennikov B. A. O materialisticheskoy podxode k yavleniyam yazika. M.: Nauka, 1983
5. Kasnelison S. D. Fonemi, sindemi i «promejutochnie» obrazovaniya // FFG. M., 1972
6. Demiyankov V.Z. Kognitivnaya lingvistika kak raznovidnosti interpretiruyushego podxoda // Vopr. yazikoznaniya. 1994. No 4. S. 17-33.
7. Voyshvillo E. K. Simvolicheskaya logika. Klassicheskaya i relevantnaya. — M.: Visshaya shkola, 1989. S.91